

**URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/04.10.2024.P.51.08 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

KURBANIYOZOVA RA'NO YULDASHEVNA

**KEKSALIK DAVRIDA QADRIYATLAR NAMOYON BO'LISHINING
PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

19.00.06 – Yosh va pedagogik psixologiya. Rivojlanish psixologiyasi

**Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Urganch– 2025

**Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
психологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on
psychological sciences**

Kurbaniyozova Ra‘no Yuldashevna

Keksalik davrida qadriyatlar namoyon bo‘lishining psixologik
xususiyatlari.....3

Курбаниёзова Раъно Юлдашевна

Психологические особенности проявления ценностей в пожилом
возрасте.....

Kurbaniyozova Rano Yuldashevna

Psychological characteristics of the manifestation of values in old
age.....

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....

**URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/04.10.2024.P.51.08 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

KURBANIYOZOVA RA'NO YULDASHEVNA

**KEKSALIK DAVRIDA QADRIYATLAR NAMOYON BO'LISHINING
PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

19.00.06 – Yosh va pedagogik psixologiya. Rivojlanish psixologiyasi

**Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Urganch– 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/P750 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Abu Rayhon Beruniy nomli Urganch davlat universitetida bajarilgan

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.urdu.uz) va «Ziyonet» Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan

Ilmiy rahbar:

Elmuratova Aysulu Usaxovna
Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa
doktori(PhD), professor

Rasmiy opponentlar:

Nurullayeva Baxtigul Babajanovna
psixologiya fanlari nomzodi, dotsent

Kadirov Kamoliddin Botirovich
psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Yetakchi tashkilot:

Buxoro davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti huzuridagi PhD.03/04.10.2024.P.51.08 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «__» _____ soat ____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 220100, Urganch shahar, Hamid Olimjon ko‘chasi 14. Tel.: (99862) 224-67-00; faks: (99862) 224-57-00, e-mail: info@urdu.uz.

Dissertatsiya bilan Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (_____ raqam bilan ro‘yxatga olingan.) (Manzil: 220100, Urganch shahar, Hamid Olimjon ko‘chasi 14. Tel.: (99862) 224-67-00.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “_____” _____ kuni tarqatildi.
(2025-yil “_____” _____dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

S.U.Xodjaniyozov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash raisi, pedagogika fanlari
doktori, professor

M.R.Sultonova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
ilmiy kotibi, psixologiya fanlari
bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

D.A.Urazbayeva

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, psixologiya
fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon miqyosida keksalar ulushi yildan yilga ortib bormoqda. Butunjahon ijtimoiy hisobotida keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, 2021-yilda 65 yosh va undan katta yoshdagi aholi soni 761 million kishini tashkil etgan. Ilmiy prognozlarga ko'ra, 2050-yilga kelib ushbu ko'rsatkich 1,6 milliardga yetishi kutilmoqda. Shuningdek, 60 yoshdan oshganlar dunyo aholisining 20 foizidan ortig'ini tashkil etishi taxmin qilinmoqda.¹ Mazkur jarayonni o'rganishga qaratilgan turli tadqiqotlar olib borilmoqda, shuningdek, hozirgi kunda ko'plab mamlakatlarda odamlarning umr ko'rish davomiyligi avvalgiga nisbatan oshib bormoqda. Yosh guruhlarini taqqoslaganda, bolalar sonining nisbatan kamayishi kuzatilmoqda. So'nggi o'n yilliklarda globallashtirish, integratsiya va jamiyat modernizatsiyasi jarayonlari ta'sirida keksa yoshdagilarning qadriyatlar tizimi va intellektual rivojlanishida muayyan o'zgarishlar sodir bo'layotgani kuzatilmoqda. Natijada, ularning o'zini anglash darajasi hamda ijtimoiy munosabatlarga yo'nalganligi borasida o'zgarishlar yuzaga kelmoqda.

Jahon miqyosida keksalik davriga xos psixologik xususiyatlar insoniyatni qadim zamonlardan beri qiziqtirib kelayotgan muhim mavzulardan biri hisoblanadi. Statistik ma'lumotlarga qaraganda, 2024-yilda o'rtacha umr ko'rish davomiyligi 72,95 (erkaklarda- 71,3, ayollarda 74,6) yoshni tashkil qiladi². Olimlar qarish sabablarini aniqlash va uzoq umr ko'rishga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni o'rganishga qaratilgan izlanishlar olib bormoqdalar. Qarish bu – tabiiy biologik jarayon bo'lib, u yoshga bog'liq holda rivojlanib, organizmning moslashish qobiliyatining bosqichma-bosqich pasayishi natijasi sifatida namoyon bo'ladi. Aholining qadriyatlar tizimini o'rganishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarning ahamiyati shundaki, keksalardagi mavjud qadriyatlarni baholash jamiyat xususiyatlaridan kelib chiqqan holda optimal klassifikatsiyasini keltirish muhimligi tadqiqotimizning dolzarb muammolaridan biri bo'lib kelmoqda.

Respublikamizda zamonaviy gumanistik va ijtimoiy o'zgarishlar sharoitida jamoatchilik ongining ma'naviy qadriyatlari tobora ustuvor ahamiyat kasb etib, keksalar qadriyatlar tizimi ijtimoiy-madaniy tizimning o'zagi bo'lib, kelajak avlod shakllanishi va tarbiyalanishidakatta ahamiyatga ega. Bu vaziyat yoshlar va o'rta avlod qadriyatlari barobarida keksalar qadriyat tizimini o'rganish muhimligidan dalolat beradi. Mamlakatimizda "Katta va keksa yoshdagi fuqarolarga uzoq muddatli tibbiy yordam ko'rsatishning modelini yaratish, ijtimoiy va tibbiy xizmat ko'rsatish hamda boshqa qator chora-tadbirlarni nazarda tutuvchi gerontologik yordam sifati va qulayligini oshirish"ga qaratilgan ustuvor vazifalar belgilab olingan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 25-martdagi PF-6195-sonli "Keksalar va nogironligi bo'lgan shaxslarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, "Saxovat" va "Muruvvat" internat uylari tizimini yanada rivojlantirish to'g'risida"gi, 2019-yil 3-fevraldagi PF-4190-sonli «O'zbekiston Respublikasida aholi ruhiy salomatligini saqlash xizmatini rivojlantirish bo'yicha, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022

¹ <http://m.xabar.uz/uz/jamiyat/keksalar-soni-oshishi-qit'alar-bo'yicha>

² <https://visasam.ru/emigration/vybor/srednyaya-prodolzhitelnost-zhizni-v-mire.html>

– 2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 27-sentabrdagi 816-sonli “Keksa avlod vakillarining jamiyatdagi o‘rni va ijtimoiy faolligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 7-iyundagi 472-sonli «Psixologiya sohasida kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va jamiyatda huquqbuzarliklarning oldini olish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi farmon va qarorlari hamda boshqa me‘yoriy hujjatlar doirasida belgilangan keng ko‘lamli strategik chora-tadbirlarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. O‘zbekistonda M.Davletshin, V.Karimova, Z.Nishonova, A.Sabirova, G‘.Shoumarov, E.Yusupov, Z.Ziyovuddinova, E.G‘oziyevlar keksalik davrining o‘ziga xos psixologik xususiyatlari, keksalikni kelib chiqishiga doir nazariyalarini, hamda keksalarlik davrining kognitiv jarayonlari masalalarini ilmiy- nazariy tadqiq etganlar.

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi mamlakatlari olimlaridan G.Abramova, M.Aleksandrova, B.Ananov, L.Antsiferova, Y.Belovol, M.Belskiy, S.Voronkina, I.Davidovskiy, T.Karsaevskaya, O.Krasnova, Y.Kamneva, Y.Kostenko, A.Liders, T.Suslova, N.Svetkova, K.Serdako, O.Strijiskaya va N.Xalina, M.Yermalayeva, I.Shapovalenko, N.Shaxmatovlar keksalik davridagi o‘ziga xos o‘zgarishlar, ruhiy buzilishlarni, intellektual qarish holatlarini o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish bo‘yicha tadqiqotlar olib borganlar.

Xorijiy olimlardan P.Baltis, D.Bromley, S.Buxler, I.Baylash, E.Erikson, I.Kemper, A.Kempinski, G.Leman, A.Luriya, X.Tohme, D.Zabeklar, S.Xoll, V.Shevchuklar tomonidan keksalarda xotira, idrok, mantiqiy tafakkur, ijtimoiy faollik masalalari tadqiq qilinib, keksalik davrining ijtimoiy-psixologik muammolarini o‘rganilgan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Urganch davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Yoshlarning ma‘naviy qiyofasini yuksaltirishning siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ma‘naviy-madaniy muammolarini o‘rganish” (2017 – 2021-yy.) mavzusidagi loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotimizning maqsadi keksalik davrida qadriyatlarining namoyon bo‘lishiga ta‘sir etuvchi psixologik xususiyatlarni ilmiy asosda tahlil qilish hamda ushbu jarayonga ta‘sir qiluvchi omillarni aniqlash va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

keksalik davridagi ijtimoiy faoliyatdagi moddiy ta‘minot, o‘z ustida ishlash, moliyaviy mustaqillikka intilish, shaxsiy erkinlik, atrofda qilarga nisbatan yuqori

darajadagi g'amxo'rlik kabi qadriyatlarni rivojlantirishga bo'lgan ehtiyojlar kuchayishini aniqlash;

keksalik davridagi qadriyatlar tizimida mavjud himoya mexanizmlari namoyon bo'lishini psixik omillar bilan bog'liqlini asoslash;

keksalik davrida namoyon bo'ladigan qadriyatlar sohasi emotsional o'z-o'zini his qilishga, kayfiyatlar dinamikasiga, fiziologik va psixologik faolligiga bevosita ta'sir qilishini isbotlash;

keksalik davridagi qadriyat tizimini samarali tashkil qilishga qaratilgan rivojlantiruvchi mashg'ulotlarini tashkil qilish va o'tkazish asosida ularda psixologik himoya mexanizmlari pasayishi isbotlash;

Tadqiqot obyekti. Keksalik davridagi namoyon bo'ladigan qadriyatlar, tadqiqotda Xorazm viloyatidan 432 nafar, Nukus shahridan 168 nafar va Jizzax viloyatidan 114 nafar – jami 714 nafar keksalar respondent sifatida jalb qilindi.

Tadqiqot predmetini keksalik davridagi shaxsning o'zini anglash jarayoni, ijtimoiy munosabatlardagi o'zgarishlar va qadriyatlar tizimining shakllanish mexanizmlari tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqotda suhbat, kuzatish, intervyu metodlaridan, shuningdek, I.Seninning "Qadriyatlar yo'nalishlari" test- savolnomasi, V.Doskin, N.Lavrenteva, V.Sharay va M.Miroshnikovlarning "O'z-o'zini his qilish, faollik, kayfiyat" metodikasi, E.Romanovanning "Psixologik himoya mexanizmlarining psixodiagnostikasi" metodikasi, J.Rotterning "Subyektiv nazorat darajasini aniqlash" testi, I.Yusupovning "Empatiya qobiliyatini o'rganish" metodlaridan foydalanildi. Olingan empirik natijalarning ishonchlilik darajasini tasdiqlashda matematik-statistika metodlaridan Mann-Uitnining U-mezoni, Kruskal-Uollisning-H-mezoni, Spirmanning r-korrelyatsiya koeffitsiyentini qo'llash orqali tasdiqlangan.

Tadqiqotning yangiligi quyidagilardan iborat:

keksalik davridagi ijtimoiy faollik natijasida "yuqori moddiy ta'minot", "o'z ustida ishlash", "moliyaviy mustaqillikka intilish", "shaxsiy erkinlik", "atrofdagilarga nisbatan yuqori darajadagi g'amxo'rlik" kabi qadriyatlar ularni zamon talablariga moslashishga, yangi ko'nikma va malakalarga ega bo'lishga, o'zini rivojlantirishga bo'lgan ehtiyojni kuchayishi bilan nomoyon bo'lishi aniqlangan;

keksalik davridagi qadriyatlar tizimida namoyon bo'luvchi "rad etish", "regressiya", "intellektualizatsiya", "o'z-o'zini his qilish", "kayfiyat barqarorligi", "internal lokus nazorat" kabi himoya mexanizmlarini namoyon bo'lishi psixik omillar bilan bog'liqligi asoslangan;

keksalik davrida namoyon bo'ladigan "kasb hunar sohasidagi", "ijodkorlik", "faol ijtimoiy munosabatlar", "o'z ustida ishlash", "yutuqlarga yo'nalish", "ma'naviy qoniqish", "o'zlikni saqlash" qadriyatlar sohasi emotsional o'z-o'zini his qilishga, kayfiyatlar dinamikasiga, fiziologik va psixologik faolligiga bevosita ta'sir qilishi isbotlangan;

keksalik davridagi qadriyat tizimini samarali tashkil qilishga qaratilgan rivojlantiruvchi mashg'ulotlarini tashkil qilish va o'tkazish asosida ularda "qiziqishlar olami"ni faollashtirish, "ijobiy ijtimoiy munosabatlarga kirishishda faollikni saqlash", "o'z ustida ishlashni", "o'ziga xoslikni saqlash" va "ma'naviy

qoniqish qadriyatlarini”ni oshirish orqali “rad etish”, “proyeksiya”, “kompensatsiya” va “intelektualizatsiya” kabi psixologik himoya mexanizmlari pasayishi isbotlangan;

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

keksalik davrida qadriyatlar namoyon bo‘lishiga ta’sir etuvchi psixologik xususiyatlar, ularga ta’sir qiluvchi omillar bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmalar ishlab chiqilgan;

keksalik davridagi qadriyatlar tizimida mavjud himoya mexanizmlari namoyon bo‘lishi yosh xususiyatlari bilan bog‘liq jihatlari va psixologik mezonlari taklif etilgan;

keksalik davrida namoyon bo‘ladigan qadriyatlar tizimi, emotsional o‘z-o‘zini his qilish, kayfiyatlar dinamikasi, shuningdek, keksalik davridagi fiziologik va psixologik faolligining psixologik xususiyatlarini aniqlashga xizmat qiluvchi psixodiagnostik metodikalarning kompleks variantlari taklif etilgan;

keksalik davrida namoyon bo‘ladigan qadriyatlar tizimi bo‘yicha rivojlantiruvchi dastur ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqotda respondentlarning yetarlicha representativligi; olingan empirik miqdoriy ko‘rsatkichlarning matematik statistikaning ishonchli usullari yordamida tahlil qilinganligi; tadqiqot natijalarining ilmiy jihatdan asoslanganligi, xalqaro miqyosida e’tirof etilgan metodikalar vositasida o‘rganilganligi, empirik izlanishlar nazariy asoslab berilganligi va olingan natijalar aniq matematik-statistik metodlar va ma’lumotlarni qayta ishlash «MS EXCEL», «SPSS 14» dasturi yordamida korrelyatsion qayta ishlab chiqilganligi va shu asosda psixologik interpretatsiya qilinganligi, xulosa, taklif, tavsiyalarning amaliyotda joriy etilganligi; tadqiqot maydoni sifatida turli hududlardagi muassasalar tanlangani; olingan natijalar keng ilmiy jamoatchilik o‘rtasida muhokama qilinganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Keksalik davridagi shaxslarda qadriyatlar namoyon bo‘lishiga ta’sir etuvchi omillar, shaxsdagi psixologik himoya mexanizmlari, emotsional holatlar, psixologik himoya mexanizmlari, empatiyaga aloqadorligini asoslanishi, shuningdek, ularning kognitiv, konativ, emotsional sohalariga ta’sir ko‘rsatuvchi psixologik modelning mazmun-mohiyatini ochib berilganligi bilan izohlanadi hamda olingan natijalar “Rivojlanish va differensial psixologiya” fanini nazariy jihatdan boyitishga xizmat qilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, tadqiqotda aniqlangan natijalar oliy ta’lim muassasalarida Amaliy psixologiya ta’lim yo‘nalishida o‘qitiladigan “Psixodiagnostika”, “Rivojlanish psixologiyasi”, “Psixokorreksiya”, “Psixologik xizmat”, “Sotsial psixologik trening” fanlarining o‘qitilishini mazmunan boyitishga xizmat qiladi. Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan psixokorreksion dasturdan amaliyotchi psixologlar faoliyatida qo‘llanishi, malakali psixologlarni tayyorlash va ularning malakasini oshirishda samarali foydalanishi mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Keksalik davridagi shaxslarning qadriyatlarini namoyon bo'lishining psixologik xususiyatlariga oid muammoni tatbiq etish asosida:

qadriyatlarni tashxislovchi metodikalar tanlanib, keksalik yosh davrida kasb-hunar olamiga yo'nalganlik, yuqori moddiy ta'minot va o'z ustida ishlash qadriyatlari qarilik davriga nisbatan yuqori darajada bo'lishiga oid takliflar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 24-noyabrdagi PM-261-son buyrug'i bilan «Ontogenez psixologiyasi. Rivojlanish psixologiyasi» moduliga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 28-noyabrdagi PM-26^a-son ma'lumotnomasi). Natijada, mavzuga oid ilmiy adabiyotlarni o'rganish, ularni nazariy tahlil qilish va izchillikda tizimlashtirish imkoni kengaytirilgan;

keksalarda qadriyatlar yo'nalganligi psixologik himoya mexanizmlari hamda emotsional holatlar, subyektiv nazorat bilan bog'liqligi, shuningdek, qadriyatli yo'nalganlik orqali keksalarda empatiya namoyon bo'lishiga oid takliflar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 24-noyabrdagi PM-261-son buyrug'i bilan «Ontogenez psixologiyasi. Rivojlanish psixologiyasi» modullariga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 28-noyabrdagi PM-261^a-son ma'lumotnomasi). Natijada, keksalarda rad etish, regressiya, intellektualizatsiya himoya mexanizmlari hamda o'z-o'zini his qilish, kayfiyat, internal lokus nazorat bilan bog'liqligi, shuningdek, qadriyatli yo'nalganlik orqali keksalarda hayvonlarga, bolalarga hamda badiiy asar qahramonlariga empatiya namoyon bo'lishiga erishildi;

keksalarda korreksion mashg'ulotlar orqali empatiya sohasidagi o'zgarishlarga oid ma'lumotlar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 24-noyabrdagi PM-261-son buyrug'i bilan «Ontogenez psixologiyasi. Rivojlanish psixologiyasi» modullariga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 28-noyabrdagi PM-261^a-son ma'lumotnomasi). Natijada keksalarga, badiiy asar qahramonlariga, begonalarga empatiyani oshirishga erishildi;

rivojlantiruvchi dastur mashg'ulotlar samaradorligini tekshirish asosida keksalarda qiziqishlar olami, faol ijtimoiy munosabatlar, o'z ustida ishlash, o'zlikni saqlash va ma'naviy qoniqish qadriyatlarini oshirishga oid takliflar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 24-noyabrdagi PM-261-son buyrug'i bilan «Psixokorreksiya» modullariga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 28-noyabrdagi PM-261^a-son ma'lumotnomasi). Natijada keksalarda proyeksiya, kompensatsiya va intellektualizatsiya psixologik himoya mexanizmlari pasaytirilishiga erishildi.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Tadqiqot asosiy natijalari bo'yicha jami 12 ta ilmiy maqola, 3 tasi O'zbekiston Respublikasi OAK tavsiya etgan jurnallarda, 1 tasi xorijiy jurnalda nashr etilgan.

Dissertatsiya ishining tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish qismi, asosiy qism 3 bob, 6 ta bo‘lim, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat bo‘lib, 123 sahifani tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, uning O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi yoritilgan, dissertatsiyaning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari ko‘rsatib o‘tilgan, ishning maqsad va vazifalari, tadqiqot obyekti va predmeti bayon etilgan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Keksalik davrining psixologik xususiyatlari o‘rganilishining nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida keksalik davri va ularning psixologik xususiyatlar masalalarini G‘arb va Sharq mutafakkirlari g‘oyalarida talqin qilinishi, muammoning zamonaviy tadqiqotlarda o‘rganilganlik holati va o‘ziga xosligi ilmiy-nazariy manbalar yordamida tahlil qilingan. Qadimgi sivilizatsiyalar paydo bo‘lgandan beri qarish jarayonlari va qarilikning o‘zi haqida turli xil fikrlar mavjud. Qarishning birinchi ta‘rifi antik davrga to‘g‘ri keladi. Miloddan avvalgi III asrda Gippokrat qarishni tabiiy issiqlikni kamayishi va tananing qarishi deb ta‘riflaydi. Aristotel qarishni insonning yoshligidan boshlab berilgan issiqlikning kamayishidir, deb izoh qoldirgan va u inson hayot davrlarini 3 bosqichga ajratgan. Bular: yoshlik, kamolot, keksalik davrlari.

E.Erikson konsepsiyasida qarilik ilgari hayot yo‘lining tugashi sifatida talqin etilgan. M.S.Pek konsepsiyasida amalga oshirilgan ekzistensial yondashuvga ko‘ra, qariyalar yoshi nafaqa maqomiga mos ijtimoiy-psixologik moslashuv xususiyatlari bilan bog‘liq. Pekning fikriga ko‘ra, "muvaffaqiyatli qariyalar" bo‘lish uchun qariyalar uchta asosiy vazifani hal qilishi zarur: kasbiy faoliyatdan tashqari, o‘ziga muhim bo‘lgan faoliyat turlarini aniqlash; jismoniy kasalliklariga nisbatan befarqlikni rivojlantirish; o‘limdan qo‘rqishni yengish, kelajak uchun avlodni tarbiyalash orqali o‘z hissasini anglash.

Agar zamonaviy qariyalar hayot davomiyligini 75-80 yil deb olsak, gerontogenez davri 25 yildan ortiq davom etadi. Bu aslida inson hayot yo‘lining uchdan bir qismini tashkil etadi. Agar biologik va psixologik o‘zgarish jarayonlari gerontogenezda doimiy ravishda mutaxassislarining diqqat markazida bo‘lsa ijtimoiy-psixologik jihati esa epizodik ravishda taqdim etiladi. 60 – 70-yillarda XX asrda mahalliy ilm-fan sohasida alohida bilim tarmog‘i - gerontopsixologiya (qarilik va qarish psixologiyasi) paydo bo‘ldi. Bu sohada M.D.Aleksandrova (1974), I.V.Davidovskiy (1967) boshqalar tomonidan muammolarni o‘rganishga bag‘ishlangan ishlar yozilgan. Ushbu ilmiy pozitsiyalar nuqtai nazaridan, qarilik, bir vaqtning o‘zida, somatik va psixo-emotsional tizimlarning qayta qurilishi sifatida ko‘rib chiqilgan bo‘lib, bu jarayon umumiy yoshga bog‘liq involutsiya (yoshdan

kelib chiqadigan o'zgarish) jarayoniga mos keladigan yangi adaptiv yo'nalishlarni ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.

Hozirgi vaqtda "qariyalar" so'zi salbiy ma'no yukini anglatadi va odamlarning yoshiga qarab diskriminatsiyaga uchrayotganidan dalolat beradi, chunki so'rovlar shuni ko'rsatadiki, nafaqa yoshidagi odamlar o'zlarini "yoshi kattalar" (masalan, Rossiyada) yoki "katta fuqarolar" (AQShda) deb atashlarini xohlashadi. Shu tarzda, zamonaviy ilmiy amaliyotda nafaqa yoshiga yetgan barcha odamlarni yoshi kattalar yoki qariyalar (yoki juda qariyalar) deb atash qabul qilingan, ba'zan - kechki yoshdagi odamlar, agar kerak bo'lsa, muayyan guruh xususiyatlarini tasvirlash bilan to'ldiriladi.

"Qarilik" va "qarish" ilmiy adabiyotda 700 dan ortiq ta'riflarga ega ekanligi hisoblab chiqilgan, ular qarishning turli tomonlarini ajratadi va tavsiflaydi, masalan, tabiiy, universal, ehtimoliy, muvaffaqiyatli, tezlashgan, subyektiv qarish va h.k. Ulardan ba'zilar ilmiy atamalar emas, ammo baribir ishlatib kelinadi. Masalan, "faol qarilik" ko'proq siyosiy shior bo'lib, BMT tomonidan 1999-yilda "Qariyalar yili" deb e'lon qilingan va Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti tomonidan qo'llab-quvvatlangan. Faol qarilik kechki hayot davrida imkon qadar uzoqroq salomatlikni va mustaqillikni saqlashga urg'u beradi. Bu tushuncha keng talqin etiladi, jumladan, yoshi kattalar farovonligining iqtisodiy jihatlarini va sog'liq holatini ta'minlashga qaratilgan, ko'pincha turmush tarzini tanlash va oldini olish choralari inobatga oladi. "Mahsuldor qarilik" – rivojlangan mamlakatlarning ijtimoiy siyosati atamasi bo'lib, yoshi kattalarning mehnat bozorida ishtirokini qo'llab-quvvatlaydi. Bu siyosat yoshga qarab diskriminatsiyaga qarshi yo'naltirilgan, majburiy nafaqaga chiqish muddatlarini kechiktirish, yoshi kattalarga malaka oshirish imkoniyatlarini yaratish va ularning ko'ngilli yoki ixtiyoriy yordam faoliyatida ishtirokini rag'batlantiradi. Mahsuldor qarilik atamasi 1990-yillarning boshlariga borib taqaladi, o'sha paytda ko'plab mamlakatlar aholining qarishi munosabati bilan mehnat resurslarining yetishmasligi natijasi bilan qiziqishni boshlashgan.

"Ijobiy qarilik" ham ilmiy atama emas. U rivojlangan mamlakatlarning ijtimoiy siyosatida, xususan, Avstraliyada qo'llanadi va kechki hayot davrini qarilik va nafaqaga chiqish haqidagi salbiy qarashlarga qarshi qo'llash uchun ishlatiladi. Hayotning kechki davri, boshqa barcha hayot bosqichlari kabi, ularning xronologik chegaralari va ijtimoiy-yosh mazmuni tarixiy va madaniy o'ziga xoslikka ega va harakatchan xarakterga ega. M.E.Elyutina tomonidan olib borilgan "hayot yo'li bosqichlarini ajratish" bo'yicha tahlil unga bu jarayonning ijtimoiy va tarixiy shart-sharoitlari haqida xulosa chiqarishga imkon berdi.

Qadriyat kategoriyasi falsafa, sotsiologiya va psixologiyadagi eng murakkab kategoriyalardan biridir. Ko'pincha bu kategoriyaning tabiati, roli, odamlarning turli hayotiy faoliyati va xatti-harakatlariga ta'siri haqidagi tushunchalarda qarama-qarshi fikrlar mavjud bo'ladi. Ch.A.Shakeyeva fikriga ko'ra [1998], bu holat "ushbu kategoriya nafaqat nazariy bo'lib, balki odamlarning xulq-atvori va harakatlari uchun haqiqiy mezonlar, asoslar va yo'nalishlarni aks ettirishi" bilan izohlanadi.

Keksalik davrining psixik rivojlanishida qadriyatlar muhim ahamiyatga ega, chunki bu davrda inson o'z hayotiga nazar tashlab, o'tmish tajribalarini tahlil qiladi

va ma'naviy qadriyatlarni chuqurroq anglaydi. Qadriyatlar nafaqat ruhiy barqarorlikni ta'minlashga, balki psixik rivojlanishni qo'llab-quvvatlashga ham yordam beradi. Keksalikda inson o'z hayotini o'zlashtirishga, qilgan ishlari va erishgan yutuqlarini baholashga intiladi. Bu jarayonda qadriyatlar o'z-o'zini anglash va hayot mazmunini topishga yordam beradi. Masalan, ma'naviy qadriyatlar hayotga nisbatan optimistik qarashni saqlashni qo'llab-quvvatlaydi. Keksalikda qabul qilingan qadriyatlar inson psixikasini barqarorlashtirishga yordam beradi. Oilaviy qadriyatlar, diniy e'tiqod va jamiyatga bo'lgan e'tibor keksa kishining yolg'izlik hissini kamaytiradi va ruhiy salomatlikni yaxshilaydi.

Demak, qadriyatlar shaxsiy tashkilotlar sifatida ikki tomonlama tabiatga ega. Bir tomondan, ular ijtimoiy kelib chiqishga ega, chunki ular jamiyat tomonidan belgilangan, boshqa odamlar bilan o'zaro munosabatda paydo bo'ladi va ijtimoiy, madaniy qadriyatlarning ichki anglanishi orqali yuzaga keladi. Ikkinchi tomondan, qadriyatlar individualdir – unda insonning takrorlanmas hayot tajribasi, uning ehtiyojlari va his-tuyg'ularining o'ziga xosligi jamlangan. Ushbu ajratish yoki qadriyatlarning ikki tomonliligi shaxsiyat darajasida shaxsiy (ichki, subyektiv, individual) va madaniy (ijtimoiy, «tashqi» va ko'pincha «qaytish» qilingan) munosabatlarni muhim psixologik belgisi sifatida ko'rsatadi.

Dissertatsiyaning **“Keksalik davridagi qadriyatlarning empirik o'rganilishi”** deb nomlangan ikkinchi bobida psixologik tadqiqotning nazariy-metodologik asoslari, qo'llanilgan metodikalarning umumiy tavsifi va o'tkazish tartibi o'z aksini topgan. Shuningdek, keksalarning qadriyatlarida namoyon bo'ladigan emotsional ahvoli, psixologik himoya mexanizmlari, empatiya darajalari differensial farqlari, o'zaro bog'liqligi masalasiga alohida e'tibor qaratilgan.

Dissertatsiyada I.G.Seninning “Qadriyatlar yo'nalishlari” test- savolnomasi, V.A.Doskin, N.A.Lavrenteva, V.B.Sharay va M.P.Miroshnikovlarning “O'z-o'zini his qilish, kayfiyat, faollik” metodikasi, E.S.Romanovanning “Psixologik himoya mexanizmlarining psixodiagnostikasi” metodikasi, J.Rotterning “Subyektiv nazorat darajasini aniqlash” testi, I.Yusupovning “Empatiya qobiliyatini o'rganish” metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqotda jami 714 ta respondent ishtirok etdi. Ularning 519 nafarini ayollar va 195 nafarini esa erkaklar tashkil etdi. Bu respondentlarni Abramova tasnifi bo'yicha 2-guruhga ajratildi: 1-guruhni 51 yoshdan 65 yoshgacha bo'lgan keksayish davridagilar (597 nafar); 2-guruhni esa 65 yoshdan katta qarilik davridagil keksalar (117 nafar) tashkil qildi.

Tadqiqotimizni 3 ta hududda: Xorazm (432 nafar), Nukus(168 nafar) va Jizzax (114 nafar) viloyatlarida o'tkazdik.

1- jadval

Turli yoshdagi keksalarning “Qadriyatlar yo'nalishlari ” test-savolnomasi ko'rsatkichlarining yosh tafovutlari bo'yicha natijalari, Mann Uitni mezoni asosida(N=714)

Shkalalar	Yoshi	N	O'rtacha rang	U	p
Kasb-hunar olami	Keksayish	597	366,85	29341,500	0,006**

	davri				
	Qarilik davri	117	309,78		
	Jami	714			
Yuqori moddiy ta'minot	Keksayish davri	597	368,16	28562,500	0,002**
	Qarilik davri	117	303,12		
	Jami	714			
O'z ustida ishlash	Keksayish davri	597	365,58	30098,500	0,018*
	Qarilik davri	117	316,25		
	Jami	714			

Izoh:**p<0.01;*p<0.05

Olingan ma'lumotlarga ko'ra, yosh ko'rsatkichlari bo'yicha bizda kasb-hunar olami sohasi bo'yicha tafovutlar kuzatildi ($U=29341,500; p<0,01$). Natijalarda keksayish davrida bo'lgan keksalarda qarilik davriga qaraganda kasb-hunarni muhim qadriyat sifatida oshganligini ko'rishimiz mumkin. Chunki bilamizki, bu davrda keksalar kasb-hunar bilan shug'ullanayotgan bo'ladi. Va keyinchalik esa bu jarayondan ular uzoqlashishadi.

Yuqori moddiy ta'minot shkalasida ishonch darajasidagi tafovutni kuzatishimiz mumkin ($U= 28562,500; p<0.01$) Bundan shunday xulosaga kelishimiz mumkinki, keksayish davridagilar qarilik davriga qaraganda hali ham mehnat bozorida faol ishtrok etadilar, ular hayotidagi moliyaviy jihatlarini tartibga solish va pensiya jamg'arma yaratishga harakat qilishadi. Bu yoshdagilar farzandlariga uy-joy qilib berishga ulgurib qolish hamda qarilik davridagilarga qaraganda sog'liq bilan muammolari kamroq bo'lishi mumkin. 65 yoshdan oshganlarning ehtiyojlari asosan jamg'armalarni samarali boshqarishga qaratilgan bo'lsa, keksayish davridagilar keksalikni ta'minlash uchun resurs yig'ish jarayonida bo'lar ekan.

Keyingi shkalamiz bo'yicha o'zlikni saqlash sohasida ishonchli farqlar kuzatildi ($U= 30098,500; p<0.05$). Demak, keksayishning dastlabki bosqichida o'zlikni saqlashning yuqori bo'lishi bir qancha omillar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Masalan, ushbu yoshdagi keksalar ijtimoiy faoliyatda ishtrok etishni davom ettiradilar, zamon talablariga moslashishni, yangi ko'nikma va malakalarga ega bo'lishni, o'zini rivojlantirishga bo'lgan ehtiyojni sezadilar.

2- jadval

Turli yoshdagi keksalarning "Subyektiv nazorat darajasi" testi ko'rsatkichlarining yosh tafovutlari bo'yicha natijalari, Mann Uitni mezoni asosida(N=714)

Shkalalar	Yoshi	N	O'rtacha rang	U	p
-----------	-------	---	---------------	---	---

Eksternal	Keksayish davri	597	355,22	0,709	0,400
	Qarilik	117	369,13		
	Jami	714			
Internal	Keksayish	597	362,83	3,837	0,050*
	Qarilik	117	330,29		
	Jami	714			

Izoh: * $p < 0,05$

Natijalar tahliliga ko'ra, J.Rotterning "Subyektiv nazorat darajasini aniqlash" testida internal shkala ko'rsatkichlarida ishonch darajasidagi farqlar kuzatildi ($U=0,709; p < 0,05$). Bunda keksayish davrida qarilik davriga internallik yuqori darajada ekanligi aniqlandi. Ya'ni keksayish yoshidagilar bu davrda hali mehnat faoliyatida ishtrok etishadi yoki yaqindagina nafaqaga chiqishgan bo'ladi va shuning uchun ham ular o'z hayotlaridagi qarorlar va natijalar uchun mas'uliyatni kuchliroq his qilishadi, chunki ular hali ham jamiyatda faol bo'lishadi. Qarilik davrida (65 yoshdan oshganlarda) esa faoliyatning, ijtimoiy rolning pasayishi va cheklanishi, qaramlikning ortishi ichki nazorat hissining kamayishiga olib kelishi mumkin.

Kasb-hunar olami va o'z-o'zini his qilish sohasi shkalalari o'rtasida musbat bog'liqlik kuzatildi ($r=0,124; p < 0,01$). Kasb-hunar sohasini qadriyat sifatida qaragan keksalarda emotsional holatidagi o'z-o'zini his qilishi yuqori darajada bo'lar ekan. Ya'ni, kasb-hunar olami sohasida ko'rsatkichi yuqori ballga ega bo'lgan kishi o'z kasbiy faoliyat sohasiga katta ahamiyat beradigan, ko'p vaqtini o'z ishlariga sarflaydigan, ishlab chiqarishdagi barcha muammolarni hal etishga tezda kirishib ketadigan, kasbiy faoliyatni hayotning asosiy mazmuni deb biladigan kishilarning o'z-o'zini his qilishi ham yuqori darajada bo'lar ekan.

3-jadval

Qadriyatlar yo'nalishi so'rovnomasi hamda o'z-o'zini his qilish, faollik, kayfiyat(O'FK) metodikasi shkalalari orasidagi korrelyatsiya koeffitsiyentlari (Spirmen mezoni bo'yicha N=714)

	O'z-o'zini his qilish	Faollik	kayfiyat
Kasb hunar olami	0,124(**)	0,046	0,132(**)
Talim-tarbiya	0,144(**)	0,057	0,105(**)
Oilaviy hayot	0,123(**)	0,063	0,131(**)
Ijtimoiy hayot	0,101(**)	0,033	0,116(**)
Qiziqishlar olami	0,111(**)	0,035	0,094(*)
Oliy nufuzga ega bo'lish	0,080(*)	0,002	0,088(*)
Yuqori moddiy ta'minot	0,053	0,061	0,06
Ijodkorlik	0,098(**)	0,052	0,113(**)
Faol ijtimoiy munosabatlar	0,123(**)	-0,007	0,054

O'z ustida ishlash	0,138(**)	0,058	0,128(**)
Yutuqlarga yo'nalish	0,154(**)	,083(*)	0,137(**)
Ma'naviy qoniqish	0,140(**)	0,046	0,107(**)
O'zlikni saqlash	,099(**)	0,035	0,064

Kasb-hunar olami va kayfiyat shkalalari o'rtasida musbat aloqalar kuzatildi ($r=0,132$; $p<0,01$). Kasb-hunar sohasini ahamiyati yuqori bo'lgan keksalarning kayfiyati ham o'z kasbi bilan shug'ullanganda yoki kasbi bilan aloqador ishlar bilan shug'ullanganda kayfiyati ham yuqori darajada bo'lar ekan.

Ta'lim-tarbiya va o'z-o'zini his qilish sohasi shkalalarida o'zaro musbat bog'liqlik kuzatilganini guvohi bo'lishimiz mumkin ($r=0,144$; $p<0,01$). O'quv-tarbiya sohasini yuqori darajaga qo'ygan keksalarda o'z-o'zini his qilishi ham yuqori darajada bo'lishi aniqlandi. Ya'ni bunda turli yoshdagi keksalar ilmi bo'lishga, o'z dunyoqarashini kengaytirishga intiluvchan yangi-yangi bilimlarni egallashni, hayotdan orqada qolmaslikni eng muhim narsa, deb hisoblaydilar va bu ularning emotsional o'z-o'zini his qilishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatar ekan.

Ta'lim-tarbiya va faollik shkalalari o'rtasida ham musbat bog'liqlik kuzatildi ($r= 0,105$; $p<0,05$). Bundan kelib chiqadiki, talim-tarbiya sohasini ustun qo'ygan keksalarda faollik darajasi ham yuqori bo'lar ekan. Bunday holatni biz keksalardagi ilmga qiziqish, ilm-fan bo'yicha yangiliklarni qabul qilishda va shu yoshda ham ilm qilishni davom ettirishlarida ko'rishimiz mumkin. Jamiyatda va jahondagi yangiliklardan xabardor va ularga to'g'ri munosabatda bo'la olishida namoyon bo'ladi.

Oilaviy hayot va o'z-o'zini his qilish sohasi shkalalarida ham musbat bog'liqlik kuzatildi ($r=0,123$; $p<0,01$). Oilaviy hayot sohasini yetakchi qadriyat hisoblagan keksalarda o'z-o'zini his qilish ham yuqori bo'lar ekan. Bunda keksalar qanchalik o'zini vaqtini oilaviy hayotiga ajratsa, farzandlari bilan vaqtini o'tkazsa, shunchalik ularning hol-o'z-o'zini his qilishi yaxshi, o'zini kuchli his qilishi, ishchan, kuchga to'la, g'ayratli, sog'lom, tetik, bardam hisoblar ekanlar.

Tadqiqotimizning maqsad va vazifasidan kelib chiqib, oilaviy hayot va kayfiyat sohasi o'rtasidagi o'zaro korrelyatsion aloqadorlikni tahlil qilganimizda, ishonch darajasidagi bog'liqlik qonuniyatlari mavjudligini ko'rishimiz mumkin. Oilaviy hayot va kayfiyat shkalari musbat ($r=0,131$; $p\leq 0,01$) aloqadorlikda ekanligi ma'lum bo'ldi. Demak, oilaviy hayot qadriyati yuqoriligi sabab keksalarning kayfiyatida quvnoqli, yaxshi kayfiyat, oilada o'zini baxtli, zavqqa to'la, optimist, umidga to'la va mamnun his qilgan ekanlar.

Ijtimoiy hayot va o'z-o'zini his qilish shkalalari o'rtasida musbat aloqador ekanligi aniqlandi ($r=0,101$; $p<0,01$). Demak, ijtimoiy hayot sohasida yuqori ko'rsatkichlarga ega bo'lgan keksalarda fiziologik va psixologik o'z-o'zini his qilishi yuqori bo'lar ekan. Ya'ni bu keksalarning jamiyat hayotiga doir muammolarga katta ahamiyat berishlari, ijtimoiy-siyosiy hayotga kirishib, unda faol munosabatda bo'lish ularga xos.

Ijtimoiy hayot va kayfiyat shkalasi o'rtasida musbat aloqadorlik kuzatildi ($r=0,116$; $p<0,01$). Ya'ni ijtimoiy hayotda faol bo'lgan keksalarning emotsional holatidagi kayfiyati ham yuqori, ya'ni ko'tarinki, quvnoq, xursand jo'shqin bo'lar ekan.

Qiziqishlar olami va o'z-o'zini his qilish sohasi shkalalari orasida musbat bog'liqlik kuzatildi ($r=0,111$; $p<0,01$). Qiziqishlarini boshqa sohalarga qaraganda yuqori qo'yadigan keksalarning psixologik va fiziologik o'z-o'zini his qilishi ham yuqori darajada bo'lar ekan. Ya'ni bunday keksalar o'z vaqtini shaxsiy qiziqishlariga sarflasalar, o'zlarini yaxshi his qilar ekanlar. Odatda bunday kishilar bo'sh vaqtlarini to'laligicha muayyan qiziqish sohalari uchun sarflaydilar va bo'sh vaqtlarda biror bir soha bilan mashg'ul bo'lishni havas qilmagan kishilar hayotini zerikarli, ko'p jihatdan mazmunsiz, deb hisoblaydilar.

Qiziqishlar olami va kayfiyat shkalalari o'rtasida korrelyatsion bog'liqlikni kuzatganimizda musbat aloqadorlik kelib chiqdi ($r=0,094$; $p<0,05$). Ya'ni keksalar o'zini qiziqtirgan ishi bilan shug'ullanganda kayfiyatlari ham yaxshi bo'lar ekan.

Oliy nufuzga ega bo'lish va o'z-o'zini his qilish shkalalari orasida ham musbat aloqadorlik kuzatildi ($r=0,080$; $p<0,05$). Ya'ni muayyan ijtimoiy talablarga rioya qilish yo'li bilan jamoatchilik nazarida bo'lishga intilgan, ijtimoiy talablarga rioya qilgan holda jamoatchilikni yoqlaydigan, qo'llab-quvvatlaydigan faoliyatga intilish, o'z mavqeini tobora baland ko'taradigan faoliyat turini izlash va bajarishni yoqtirgan keksalarning sog'ligi va psixologik holati ham yaxshi bo'lar ekan.

Metodikaning quyidagi oliy nufuzga ega bo'lish va kayfiyat shkalalari o'rtasida musbat aloqadorlik aniqlandi ($r=0,088$; $p<0,05$). Ya'ni yuqori obro'-etiborga ega bo'lgan keksalarda o'zini tutishi, qaror qabul qilish jarayoni va atrofdagilar bilan muloqot qilish jarayonida kayfiyati ham ko'tarilar ekan.

Keyingi shkala bo'yicha korrelyatsion bog'liqlikni kuzatganimizda ijodkorlik va o'z-o'zini his qilish shkalalarida ham musbat aloqadorlikni kuzatishimiz mumkin ($r=0,098$; $p<0,01$). Bunday keksalar ijod bilan shug'ullanganda uning ruhiy holati ham yaxshilanadi. Ijodkorlik bilan shug'ullanganda keksalar o'z-his tuygularini ifodalash orqali yengil tortadilar.

Ijodkorlik va kayfiyat shkalalarida biz yana musbat korrelyatsion bog'liqlikni uchratishimiz mumkin ($r=0,113$; $p<0,01$). Ya'ni turli yoshdagi keksalar ijodkorlik jarayonida ijobiy kayfiyatda bo'lar ekanlar. Va bunday kayfiyat ijodkorlik bilan bog'liq muammolarga yechim topish ehtimolini ham oshiradi.

Faol ijtimoiy munosabatlar va o'z-o'zini his qilish shkalalari o'rtasida ham o'zaro musbat aloqadorlik natijasi chiqdi ($r=0,123$; $p<0,01$). Bunday keksalarda faol ijtimoiy munosabatlar depressiya va xavotirlikni kamaytiradi, shuningdek, bu boshqa ko'plab jismoniy kasalliklarni kamaytiradi. Keksalar ijtimoiy hayotda faol bo'lish orqali o'z sog'lig'iga yaxshiroq g'amxo'rlik qiladilar.

O'z ustida ishlash va o'z-o'zini his qilish shkalalari o'rtasida musbat aloqadorlik namoyon bo'ldi ($r=0,138$; $p<0,01$). Demak, turli yoshdagi keksalar o'z bilimini, tajribasini va mahoratini oshirishga intilib, o'z-o'zini rivojlantirish bilan shug'ullanganida o'z-o'zini his qilishi yaxshilanar ekan. Bu mehnat qilish, yangi

narsalarni o'rganish va o'zini takomillashtirganda uning holati ham yuqori darajada bo'lar ekan.

O'z ustida ishlash va kayfiyat shkalalari solishtirilganda ham musbat bog'liqlik kuzatildi ($r=0,128$; $p<0,01$). Bunda keksalar o'z maqsadlariga erishish uchun o'z ustida ishlayotganda ichki motivatsiya, qoniqish his qililar ekanlar. O'zini rivojlantirish jarayonida keksalarda ijobiy kayfiyat va hayotdan zavqlanish kuchayar ekan.

Yutuqlarga yo'nalish va o'z-o'zini his qilish shkalalari o'tasida o'zaro musbat korrelyatsion bog'liqlik aniqlandi ($r= 0,154$; $p<0.01$). Bu keksalarning yutuqqa va muvaffaqiyatga erishish jarayonida ularning ruhiy va jismoniy holati ijobiy tomonga o'zgarar ekanlar. Va bu keksalardagi motivatsiyaning oshishiga, o'z-o'ziga ishonchining ortishiga olib kelar ekan.

Natijalarda yana yutuqlarga yo'nalish va faollik shkalalari orasida musbat aloqadorlik kuzatildi ($r=0,83$; $p<0.05$). Ya'ni turli yoshdagi keksalar yutuqlarga erishsalar yanada faolroq, kuchli intilish bilan ish olib borar ekanlar. Bu jarayonda keksalar yanada maqsadlariga erishish uchun ko'proq harakat qiladi, mehnat unumdorligi ortadi.

Yutuqlarga yo'nalish va kayfiyat shkalalari o'rtasida biz musbat bog'liqlikni ko'rishimiz mumkin ($r=0,137$; $p<0.01$). Bundan ko'rinib turibdiki, keksalar yutuqlarga erishish jarayonida ichki zavq va motivatsiyani his qilishi, o'z ishidan qoniqish olishi nazarda tutiladi. Erishgan yutuqlaridan kayfiyatini ko'taradi va bu esa yanada katta yutuqlarga erishishi uchun qo'shimcha ruhiy kuch berishi mumkin.

